

MAKTABGACHA TALIMDA INNAVATSION G'OYALARNI LOYIHALASH**Abduraxmonova Maftuna Jabborali qizi****Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim 2-24-guruh talabasi**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20377825>**Annotatsiya**

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimida o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama intellektual va ijodiy yetuk qilib tarbiyalash uchun mutlaqo yangicha va innovatsion yondashuvlar zarur bo'lmoqda. Men o'z tadqiqotimda bugungi kunda bog'chalarda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan yangi innovatsion g'oyalarni loyihalash va ularni guruh amaliyotiga qanday to'g'ri joriy etish mumkinligini o'rganishni maqsad qilib oldim. Biz yaxshi bilamizki, bolani shunchaki an'anaviy darslar bilan qiziqtirish qiyin, shu sababli tarbiyachining innovatsion loyihalar yaratishi va darslarni o'yin shakliga keltirishi eng to'g'ri yo'ldir. Men bog'chada amaliyot o'tash davomida interaktiv o'yinlar, raqamli texnologiyalar va ijodiy burchaklar yordamida bolalarning fikrlash doirasi qanchalik tez o'sishini yaqindan kuzatdim. Olib borgan kuzatishlarim shuni ko'rsatdiki, yangi g'oyalarni loyihalash bolalarda tanqidiy tafakkurni, jamoada ishlash qobiliyatini va mustaqillikni juda chiroyli shakllantirar ekan. Mening ushbu ishida keltirilgan tavsiyalar va amaliy loyihalash usullari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ishlayotgan yosh tarbiyachilar hamda men kabi amaliyotchi talabalar uchun kundalik faoliyatda juda yaxshi uslubiy qo'llanma bo'la oladi. Xulosa o'rnida aytishim mumkinki, ta'limda innovatsion g'oyalarni to'g'ri loyihalash bolaga tayyor bilimlarni berish emas, balki amaliy o'yinlar va kashfiyotlar orqali dunyoni mustaqil o'rganishiga zamin yaratadigan eng samarali vositadir.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, mening tadqiqotim, innovatsion g'oyalar, loyihalash, interaktiv metodlar, tanqidiy fikrlash, ijodiy muhit, zamonaviy tarbiyachi, jamoaviy hamkorlik, mustaqil kashfiyotlar, talabalik izlanishi, poydevor.

Kirish

Hozirgi kunda hayotimiz shunchalik shiddat bilan yangilanib, zamonaviy texnologiyalar har bir sohaga kirib boryaptiki, bu holat maktabgacha ta'lim tizimi oldiga ham butunlay yangi va qiziqarli vazifalar qo'ymoqda. Men talaba sifatida pedagogika sohasini o'rganar ekanman, farzandlarimizning kelajakda kreativ fikrlaydigan, mustaqil va har qanday muammoga oson yechim topa oladigan insonlar bo'lib yetishishi aynan bog'cha yoshidan boshlanishini chuqur tushunib yetdim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayoniga yangi innovatsion g'oyalarni olib kirish, ularni loyihalar shaklida hayotga tatbiq etish va bolalarga dunyoning yaxlit manzarasini quvnoq o'yinlar orqali o'rgatish bugungi pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib turibdi.

Kichik yoshdagi bolaning miya faoliyati nihoyatda qiziquvchan bo'lib, u atrofdagi hamma narsani ushlab ko'rish, tajriba qilish va o'yinlar o'ynash orqali juda tez o'rganib oladi. Agar biz darslarda bolalarni uzoq vaqt jim o'tirishga majburlasak va tayyor bilimlarni yodlatsak, bu holat ularning ijodiy qobiliyatlarini so'ndirib qo'yishi hech gap emas. Innovatsion g'oyalarni loyihalashning eng ajoyib tomoni shundan iboratki, u ta'lim jarayonini butunlay bolaning qiziqishlariga moslab qayta qurishga yordam beradi. Masalan, bola biror mavzuni o'rganayotganda shunchaki rasmga qarab turmaydi, balki tarbiyachi loyihalagan kichik ekologik burchakda o'simliklarni parvarish qiladi yoki quvnoq laboratoriyada suv va qum bilan tajribalar o'tkazadi. Bunday integratsiyalashgan loyihalar bolalarning ko'rish, eshitish va ushlab ko'rish sezgilarini kuchaytiradi, ularda mantiqiy bog'lanishlarni mustaqil o'rnatishni o'rgatadi. Agar biz bog'chada

mana shunday tadqiqotchilik va ijodkorlik intilishlarini vaqtida qo'llab-quvvatlamasak, keyinchalik maktab yoshida ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish ancha qiyin kechishi mumkin, shu sababli yangicha g'oyalarni bugun bog'chalarga juda zarurdir.

Mening talabalik ilmiy izlanishlarim va bog'chalarda amaliyot o'tash davomidagi shaxsiy kuzatishlarim aynan mana shu zamonaviy loyihalarni guruhlarda qanday samarali tashkil etish kerakligini ko'rsatib berishga qaratilgan. Tezis doirasida men bolajonlarning dunyoqarashini va darslarga bo'lgan ishtiyoqini qanday qilib jamoaviy innovatsion loyihalar orqali yuqori bosqichga olib chiqish mumkin degan savolga amaliy javob izlashga harakat qildim. Amaliyot davomida real jarayonlarni yaqindan kuzatganimda shunga guvoh bo'ldimki, to'g'ri loyihalangan darslar davomida bolalar shunchaki jim o'tirib tarbiyachini tinglaydigan passiv tinglovchi emas, balki haqiqiy harakatchan va tashabbuskor kashfiyotchi rolda maydonga chiqishar ekan. Ular guruh bo'lib loyihalar ustida ishlayotganda rollarni bo'lishib olishni, do'stlarining fikrini tinglashni va bir-biriga yordam berishni o'rganishadi, bu esa ularning nutqini va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda biz pedagoglar faqat buyruq beruvchi emas, balki bolaga to'g'ri yo'nalish ko'rsatuvchi eng yaqin do'st bo'lishimiz kerak va biz tavsiya etayotgan usullar yosh tarbiyachilar faoliyatini qiziqarli qilishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish va ularni muvaffaqiyatli loyihalash, birinchi navbatda, o'quv-tarbiya jarayonini bolalarning yosh xususiyatlariga moslab, faqat qiziqarli o'yinlar orqali amalga oshirishni talab qiladi. Men bog'chada amaliyot o'tash davomida shunga guvoh bo'ldimki, innovatsion loyihalash deganda guruh xonasida maxsus rivojlantiruvchi markazlarni, ya'ni bolalar erkin harakat qila oladigan va kashfiyotlar qila oladigan burchaklarni to'g'ri tashkil etish tushuniladi. Masalan, guruhda kichik kiber-pedagogika elementlarini qo'llash, ya'ni interaktiv doskalar va multimedia vositalaridan foydalanib o'yin-sayohatlar loyihalash bolalarning darsga bo'lgan diqqatini bir necha barobarga oshiradi. Shuningdek, loyihalash jarayonida "Keys-texnologiya" (muammoli vaziyatlar) usulidan foydalanish ham juda yaxshi natija beradi, ya'ni tarbiyachi bolalarga ertak qahramonining muammosini aytadi va bolalar birgalikda unga yechim izlashadi, bu esa bolalarda mustaqil va mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi.

Ushbu muammoni amaliyotda oson va to'g'ri hal etish uchun guruhda bolalarning erkin tanlov huquqini ta'minlaydigan loyiha metodidan keng foydalanish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bolalar biror qiziqarli mavzu, masalan, "Bizning kelajakdagi shahar loyihimiz" yoki "Tabiatni asraymiz" kabi loyihalar atrofida bir necha kun davomida jamoa bo'lib izlanish olib borishadi. Bu jarayonda ular shunchaki tayyor rasmlarni ko'rishmaydi, balki o'zlari konstruktorlardan binolar qurishadi, chiqindi qog'oz va qutilardan har xil foydali buyumlar yasab, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishadi. Bunday boyitilgan o'yin va sensor muhit bolada men buni o'zim uddalay olaman degan o'ziga ishonchni uyg'otadi va uni yangi narsalarni o'rganishga ruhan rag'batlantiradi, tarbiyachi esa bolaning kichik tashabbuslarini har doim qo'llab-quvvatlashi kerak bo'ladi.

Innovatsion g'oyalarni loyihalashning yana bir eng guvoh bo'lgan va yosh tarbiyachilarga asqotadigan tomoni shundaki, u bolajonlarni jamoada ahil ishlashga va bir-birini tushunishga o'rgatadi. Loyiha faoliyati davomida bolalar guruh-guruh bo'lib ishlashadi, birgalikda reja tuzishadi va biror ish o'xshamay qolganda, yechimni birgalikda izlashadi, bu esa ularda do'stlashish va liderlik tuyg'ularini shakllantiradi. Biroq pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, ta'limda innovatsiyalarni loyihalash faqat bog'cha ichidagi darslar bilan cheklanib qolmasligi lozim, bu jarayonda oila bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, ota-onalarni ham uy sharoitida farzandlari bilan qiziqarli ijodiy loyihalar o'tkazishga rag'batlantirish talab etiladi. Tarbiyachi va

ota-onaning hamfikrligi, bolaning ijodiy ishlariga nisbatan yagona va qo'llab-quvvatlovchi munosabatning mavenjudligi innovatsion dasturlarning samaradorligini ancha oshiradi hamda bolaning intellektual salohiyatini mustahkamlaydi.

Loyiha metodi va interaktiv burchaklardan unumli foydalanish ta'lim jarayonidagi zerikarlilni bartaraf etib, guruhda yuqori darajadagi emotsional qulaylik va ijobiy motivatsiyani shakllantiradi. Kichik yoshdagi bola dunyoni harakat va kashfiyotlar orqali anglagani bois, turli multimedia vositalari, LEGO va har xil materiallar bilan ishlash uning ichki xavotirligini kamaytiradi va bilishga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondiradi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda, maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion laboratoriyalar va maxsus rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish, ularni xavfsiz jihozlar va tabiiy xomashyolar bilan muntazam boyitib borish talab etiladi. Tarbiyachilar tomonidan dars o'tishda loyiha usulidan keng foydalanish hamda mashg'ulotlarda bolalarga mustaqil tanlov va erkin harakat qilish imkoniyatini taqdim etish zarur. Muassasa metodistlari hamkorligida tarbiyachilarning innovatsion faoliyat bo'yicha mahorat darslarini muntazam tashkil etish amaliyoti joriy etilishi kerak. Ota-onalar bilan ishlash tizimini ham yangilab, uy sharoitida bolalar bilan o'tkazish mumkin bo'lgan sodda loyihalar aks etgan tarqatma metodik tavsiyalar tizimini yo'lga qo'yish lozim. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion g'oyalarni to'g'ri loyihalash – farzandlarimizning intellektual salohiyatini asrashning hamda ularning kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo'lib shakllanishining mustahkam kafolatidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi “Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-19-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-152-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4312-sonli Qarori.
4. Mirziyoyeva S.Sh. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni intellektual va ijtimoiy rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2022. – 180 b.
5. Hasanboeva O.U., Tojiyeva M.X., Toshpo'latova Sh.K. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2019. – 240 b.
6. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.K. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2021. – 195 b.
7. Nishonova Z.T., Alimova G.X. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2018. – 210 b.
8. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2020. – 230 b.
9. Jalolova M.A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish metodikasi // Pedagogika ilmiy jurnali. – Toshkent, 2024. – №1. – B. 34-40.
10. Karimova S.B. Bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda innovatsion loyihalashning o'rni // Maktabgacha ta'lim jurnali. – Samarqand, 2023. – №4. – B. 18-25.

11. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. "Ilk qadam" maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). – Toshkent, 2022. – 144 b.